



**YURTIMIZDA MAVJUD MUHOFAZA QILINADIGAN TABIIY  
HUDUDLAR, ULARNING AHAMIYATI VA BUGUNGI KUNDAGI  
AHVOLI.**

**Xakimov O'ktam Toshbotirovich<sup>1</sup>**

q-x.f.n.

Tel: +998934633532,

**Adilov Sobit Uktamovich<sup>2</sup>**

o'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi,

**Mamanazarov Jaloliddin Kamolboyevich<sup>3</sup>**

“Markaziy Qizilqum“ milliy tabiat bog'i direktori,

**Babayeva Zarifaxon Aktam qizi<sup>4</sup>**

“Markaziy Qizilqum“ milliy tabiat bog'i ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7273145>

Annotatsiya: Bioxilma-xillik mukammal bir tizim bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. BMT tomonidan 1992 yilda «Biologik xilma-xillik to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilingan bo'lib, Konvensiyaga asosan har yili dunyo hamjamiyati tomonidan 22 may -Xalqaro bioxilmaxillik kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Biologik xilma-xillikni qayta tiklash va asrash, ekotizimlarni himoya qilish insoniyat kelajagi va taraqqiyoti uchun muhim va dolzarb masalalar hisoblanadi. Aytib o'tishimiz joizki, respublikamiz hududida tabiiy ekotizimlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular cho'l va yarimcho'l, tog'oldi va pastqam tog'li joylar, tog', daryo va qirg'oqbo'yi hamda suvli-botqoq joylardan iboratdir. Inson yashar ekan faoliyati davomida hayvonlarga salbiy va ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Salbiy ta'sir natijasida ba'zi turlarning yo'qolib ketishiga, ba'zilarining kamyob bo'lib qolishiga, ya'ni son jihatidan kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu maqolada biologik xilma-xillikni asrash borasida mamlakatimizda qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonasi, biosfera rezervati, milliy tabiat bog'lari, pitomnik, tabiat yodgorliklari tashkil etilgan bo'lib, noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolganlarini saqlab qolish hamda ko'paytirishdek davrimiz uchun o'ta dolzarb muammolarni hal etishda muhim o'rin tutishi haqida so'z boradi.

Аннотация: Биоразнообразие представляет собой совершенную систему и является важным фактором обеспечения экологической стабильности. Конвенция о биологическом разнообразии была принята ООН в 1992 году, и на ее основе ежегодно мировое сообщество широко отмечает 22 мая как Международный день биоразнообразия. Сосредоточение внимания на важных и актуальных вопросах будущего и развития человечества через восстановление и сохранение биологического разнообразия и защиту экосистем – это достижение положительных результатов. Стоит отметить, что природные



экосистемы на территории нашей республики чрезвычайно разнообразны, они состоят из пустынь и полупустынь, горных и низкогорных районов, гор, рек и прибрежных территорий, а также водно-болотных угодий. Человек может оказывать отрицательное и положительное воздействие на животных во время своей деятельности. В результате негативного воздействия одни виды исчезают, другие становятся редкими, то есть уменьшаются в численности.

В целях сохранения биологического разнообразия в нашей стране созданы заповедники, частные заказники, биосферные заказники, национальные природные парки, питомники, памятники природы и др., играющая важную роль в решении наиболее актуальных проблем современности.

Kalit so'zlar: Bioxilma-xillik, Konvensiya, yarimcho'l, biosfera rezervati, qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'i, "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i, tabiat solnomasi.

Ключевые слова: Биоразнообразие, конвенция, полупустыня, биосферный заповедник, заповедник, национальный природный парк, Центрально-Кызылкумский национальный природный парк, Летопись природы.

Bir necha asrlar davomida insoniyatning tabiat ne'matlaridan uzluksiz, rejasiz va xo'jasizlarcha foydalanishlari, tabiatda mavjud bo'lgan muvozanatning buzilishiga sabab bo'ldi. Oqibatda esa ba'zi turlar butunlay yo'qolib ketishiga va ayrim turlarning son jihatidan kamayishiga olib keldi. Ana shunday ayanchli oqibatlarining oldini olish, jamiyatning to'xtovsiz ta'sirini kamaytirish, tabiatning asl muhitini va tabiiy bioxilma-xillikni saqlab qolish uchun butun dunyo bo'yicha alohida muhofaza qilinadigan hududlar tashkil etilgan bo'lib, ularning umumiy maydoni jami yermaydonining

35%ini tashkil qiladi. Shu jumladan respublikamizda mavjud bo'lgan alohida muhofaza qilinadigan hududlarning umumiy maydoni yangi hududlar tashkil etish hisobiga 11.2 % ni tashkil etmoqda. Yo'qolib borayotgan hayvon va o'simlik turlarini saqlab qolish, ekologik barqarorlikni qaror toptirish, noyob va yo'qolib borayotgan turlarni son jihatidan ko'paytirish maqsadida mamlakatimizda ham alohida muhofaza qilinadigan hududlarni kengaytirish va ularni davlat muhofazasi ostiga olish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi "Bioxilma-xillikni saqlash to'g'risida"gi xalqaro konvensiyasi ishtirokchisi bo'ldi. 1998-yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan biologik xilma-xillikni saqlab qolish hamda ko'paytirish maqsadida milliy strategik reja ishlab chiqildi. Shuningdek, faoliyat olib borayotgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning 93 %i asosan tog', tog'oldi va suvli landshaftlarni muhofaza etishga qaratilganligi va cho'l ekotizimini to'liq muhofazaga olgan va qo'riqlanadigan hududlar respublikamizda mavjud emasligi bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan har bir muhofaza qilinadigan hududlarning asosiy maqsadi ham aynan ma'lum arealda mavjud bo'lgan har bir o'simlik va hayvon turiga nisbatan takrorlanmas tur sifatida qarash, genetik jihatdan sofligini ta'minlash hamda har qanday biologik jamoada o'ziga xos o'rniga va barqarorligiga egaligini ta'minlashdan iboratdir. Respublikamizda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning quyidagi asosiy guruhlari mavjud. **Davlat qo'riqxonalar** bugungi kunda «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar» kesimida asosiy o'rinni egallab, ularning umumiy maydoni 2284 kv.km.ni tashkil etadi. Qo'riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o'simlik turlari o'rganiladi hamda himoya qilinadi. Qo'riqxonalarda insonlarning xo'jalik ta'sirlari ta'qiqlanadi. Respublikamiz hududida jami bo'lib 10 ta qo'riqxonalar mavjud bo'lib, bular: Zomin, Chotqol, Surxon, Qizil-Qum, Baday-To'qay, Zarafshon, Nurota, Oqtog'-Tomdi, Kitob, Hisor kabi davlat qo'riqxonalaridan iborat. **Alohida muhofaza qilinadigan hududlarga milliy bog'lar ham kiritilib**, muhofaza qilinadigan hududning 30% ni, ya'ni 6061 kv.km. maydonni egallaydi. Milliy bog'larning asosiy maqsadi tabiat turlaridan oqilona foydalanish hamda tabiiy bioxilma-xillikni saqlash hamda ularni muhofaza qilishdan iboratdir. Shuningdek, muhofaza



qilinadigan hududlar turkumiga **davlat buyurtmaxonalari ham kiradi. Bunday hududlar** doimiy bo'lmagan, ayrim paytlarda mavsumli qo'riqlash tartibiga ega bo'lgan mintaqalarni o'z ichiga olib, ular qisqa vaqt ichida (5-10 yilga) tashkil qilinadi. Maydoni 12186,5 kv.km. bo'lib, bugungi kunda o'ndan ortiq davlat buyurtmaxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Davlat buyurtmaxonalarning asosiy vazifasi zarur bo'lgan o'simlik va hayvon turlarini yetkazib berish, himoya qilish va ularni turli usullar yordamida ko'paytirishdir. Mamlakatimizda Qorako'l, Qarnabcho'l, Sayg'oq, Sudoche, Qo'shrabod, Qoraqir, Sarmishsoy, Arnasoy, Dengizko'l, Muborak, Oqtov, Nurobod kabi davlat buyurtmaxonalari mavjud bo'lib, tabiiy bioxilma-xillikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Noyob o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan ekologik, madaniy, ilmiy, estetik jihatdan qimmatli tabiiy hududlar davlat tabiat yodgorliklari bo'lib, ular tabiiy suv ob'ektlarini, ayrim o'simliklarni, tabiat yaratgan relief shakllarini, qazilma obektlarini, geologik va minerologik hosilalarini saqlab qolishga qaratilgan. Bugungi kunda yurtimizda ko'plab tabiat yodgorliklari mavjud bo'lib, Vardanzi, Yozyovon, Qirqqiz, Parpiota, Peshag'or tabiat yodgorliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Jayron ekomarkazi va Chotqol biosfera rezervati ham mavjud. Shuningdek, respublikamizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obektlar va majmualarni, o'simlik va hayvonot dunyosining noyob va yo'qolib borayotgan turlarini saqlab qolish hamda ularni qayta tiklash maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi hamda Navoiy viloyati hokimligi hamkorligida Uchquduq tumanida 1200000 gektar kenglikdagi "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ini tashkil qilish va Tomdi tumanidagi 40 000 gektar maydondagi davlat qo'riqxonasi tashkil etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 26-fevralda 131-sonli PQ tasdiqlandi. Qarorga binoan Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan ikki oy muddatda «Markaziy Qizilqum» milliy tabiat bog'i va "Oqtog'-Tomdi" davlat qo'riqxonasining ijro etuvchi tuzilmalari tasdiqlanib, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazildi va «Markaziy Qizilqum» milliy tabiat bog'i va «Oqtog'-Tomdi» davlat qo'riqxonasini malakali mutaxassislar bilan to'ldirish ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ida jami bo'lib 43 ta malakali xodimlar faoliyat yuritib kelishmoqda. Muhofaza etiladigan hududda faoliyat yuritayotgan har bir xodim milliy tabiat bog'i uchun qabul qilingan Nizom asosida ish olib bormoqdalar. Shu jumladan, milliy tabiat bog'ida 2022- yilning 23-avgust oyidan boshlab 4 nafar ilmiy xodim faoliyat boshladi va ilmiy kengash tomonidan tasdiqlangan ilmiy mavzu asosida ishlar boshlandi. Bunda har bir xodim quyidagi vazifalari asosida ish olib borishmoqda:

- Xududda ilmiy tadqiqot ishlarining dala tajribalarini olib borish, kartoteka yuritish hamda kolleksion materiallarni to'plab ularni qayta ishlash yuzasidan belgilangan tartibda faoliyat yuritish;
- Ilmiy kengash tomonidan belgilangan mavzu bo'yicha dastur tayyorlash, ushbu dastur asosida hisobotlar tuzish va "Tabiat salnomasi" yuritish;
- Aholi o'rtasida atrof- muhitni muhofaza qilish va qo'riqxonaga faoliyati to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borish, hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va qo'riqxonaga rejimi, o'simlik va hayvonlarni o'rganish bo'yicha reydlarda ishtrok etish kabi vazifalar har bir ilmiy xodim zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, har bir xodim O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risi"dagi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bo'lishni tartibga solishning ayrim masalalari to'g'risi"da, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududning pasportini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi, Qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvon turlariga oid bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari mavjud bo'lgan muhofaza etiladigan hududga nisbatan yanada mas'uliyat bilan yondashishlariga va o'z ilmiy ko'nikmalarini ish faoliyati davomida

mustahkamlab

borishlariga

zamin

yaratmoqda.



1-rasm. "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i xududlari.

- Respublikamizda mavjud bo'lgan har bir muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan davlat nazorati ostida ya'ni O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va joylardagi muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Respublikamizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yaxlit bir tizim sifatida qaralib, ulardan asosiy maqsad ham aynan bioxilma-xillikni saqlash, uni ko'paytirish va ekotizimni mustahkamlashdan iboratdir. "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'i tashkil etilgan dastlabki kundan boshlab yuqoridagi vazifalarni bajarish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Ish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida 7 dona vagonlar keltirildi. Shuningdek fotoqopqonlarni keltirish, o'rnatish va texnik jihatidan ta'minlash ishlari ham davom etmoqda.



2-rasm. "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ida fotoqopqonlar uchun joy tanlash jarayoni.



3-rasm. "Markaziy Qizilqum" milliy tabiat bog'ini o'rganish ishlari.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi qonundan kelib chiqib, tashkil etilgan har bir ob'ekt noyob va qimmatli majmualarni o'z ichiga olib, undagi mavjud bo'lgan o'simliklar va hayvonlarning genofondini saqlab qolish, inson omilining tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish va ba'zi yo'qolib borayotgan turlarga nisbatan cheklash, atrof- muhit monitoringini olib borish hamda jamiyat o'rtasida tabiat va uning barcha tabiiy boyliklariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishning ekologik bilimlarni takomillashtirish va ularni nazorat qilishdan iboratdir. Hozirgi fan-texnika rivojlanib



borayotgan bir davrda har inson tabiat boyliklarini shu jumladan flora va fauna dunyosining kamayib borishini oldini olish, asrab-avaylash va zarur choralar yordamida maxsus laboratoriya yoki muhofaza etiladigan hududlarda genetik jihatdan yaxlitligini saqlab qolish choralarini ko'rish lozimligini anglab yetishmoqda. Bu borada "Markaziy Qizilqo'm" milliy tabiat bog'ida ham bunday jarayonlarga muhim va dolzarb masala sifatida qaralishi, insoniyatning yana bir bor tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi lozimligini va uning mavjud bo'lgan har bir turini muhofaza qilishlikni talab qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi" Toshkent-1998, 54-b.
2. G.Shagiixmetova "O'zbekiston Respublikasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar" maqola
3. "Markaziy Qizilqum " milliy tabiat bog'ining mansab yo'riqnomalari.
4. "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tizimida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 131-son PQ.
5. "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 76-sonli PQ.
6. [uznature.uz](http://uznature.uz)
7. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

